22-fevral – Azim Suyun tavallud topgan kun

https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtirom/azim-suyun-tavallud-topgan-kun

Azim Suyun 1948 yil 22 fevralda Samarqand viloyati Nurota tizma tog‘lari etagida joylashgan Quduqcha qishlog‘ida tug‘ildi. Nakurt qishlog‘ida Suyun bobo tarbiyasida o‘sib ulg‘aydi. Yosh Azim cho‘pon otasi ortidan yurib, tabiat sirlari bilan oshno tutingan. Ayni shu omil bo‘lg‘usi shoirning shakllanishiga ta’sir o‘tkazgan.

“...Keyin askar bo‘ldim, – deb yozadi u tarjimai holida, – Toshkent davlat universtetining jurnalistika fakultetini bitirdim. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, O‘zbekiston Davlat matbuot qo‘mitasi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, “Xalq so‘zi”, “O‘zbekiston ovozi” gazetalarida xizmat qildim. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati bo‘ldim...”

Shu paytgacha shoirning “Mening osmonim” (1978), “Zarb” (1979), “Zamin taqdiri” (1981), “Xayolot” (1984), “Ziyo yo‘li” (1986), “Javzo” (1987), “Olis tonglar” (1989), “Kuyganim – suyganim” (1992), “Qora ko‘zing sening” (1994), “Sarbadorlar” (1994), “Saylanma” (1997), “O‘zlik” (1999), “Sharq hikmati” (2000), “Ey, do‘st” (2005), “Vatan fasllari” (2007), “Muhabbat hayratlari” (2009), “Tanlangan asarlar” (7 jildlik, 2009) nomli kitoblari nashr etildi.

Azim Suyun turli davrlarda dolzarb mavzularda ko‘plab maqolalar, suhbatlar, she’rlar, hikoyalar yozgan. Ularda uning nechog‘lik ijodiy izlanishlar olib borayotganligini ko‘rish mumkin.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Azim Suyun “O‘zbekiston belgisi” nishoni sohibi. U Butunjahon shoirlari Kongressi a’zosi. Turkiya, Koreya, Rossiya, Hindiston va boshqa davlatlarda bo‘lib o‘tgan xalqaro adabiy anjumanlar qatnashchisi hamdir.

Shoir 2020 yil 9 mart kuni olamdan o‘tdi.